

## VIRUSLAR-ASR VAVOSI

*Omonqulov Jahongir Ikrom o'g'li*

*SamDTU jizzax filliali Davolash ishi*

*yo'nalishi 3-kurs talabasi.*

**ANOTATSIYA:** Maqolada viruslar haqida, koronaviruslar va COVID-19. COVID-19 ni belgilari, undan saqlanish haqida qisqacha malumotlar berilgan.

**KALIT SO'Z:** Viruslar, koronavirus, COVID-19, UNICEF, Infeksiyani yuqtirmaslik, Alomatlari

**Viruslar** (lotincha: *virus* — zahar)—faqatgina tirik hujayralarda ko'payib, o'simlik, hayvon va odamda yuqumli kasallik qo'zg'atuvchi mikroorganizmlardir. O'tmishda "Viruslar" atamasi har xil kasallik qo'zg'atuvchilarga, nisbatan qo'llanilgan. Fransuz olimi L. Paster bir qancha kasalliklarning kelib chiqishida bakteriyalarning rolini isbotlab berganidan so'ng viruslar tushunchasi "mikrob" so'zining sinonimi sifatida qo'llanila boshlandi. Viruslar tabiatda keng tarqalgan, odam, hayvonlar va o'simliklarda har xil og'ir kasalliklarni paydo qiladi. Ko'pchilik Viruslar yillab tiriklik xususiyatini yo'qotmaydi, qulay sharoitga (tirik hujayraga) tushib qolishi bilan kasallik qo'zg'ata boshlaydi. Ayrim Viruslar (masalan, gripp viruslar) tashqi muhitda o'z xususiyatini yo'qotadi. Viruslar qo'zg'atadigan kasallikning paydo bo'lishiga ko'pincha faqat bitta virus zarrasi sabab bo'lishi mumkin. Masalan, bitta poliomyelit virusi zarrasi (molekulasi)dan bir necha soatda milliardlab viruslar vujudga keladi.

**Koronaviruslar** (CoV) — bu oddiy shamollashdan tortib jiddiy kasalliklarga, masalan, Yaqin Sharq respirator sindromi (MERS-CoV) va og'ir o'tkir respirator sindrom (SARS-CoV) kabi kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan viruslar oilasidir.

Yangi koronavirus (nCoV) — bu virusning ilgari odamlarda aniqlanmagan yangi shtammidir. Koronaviruslar — bu zoonozlar, ya'ni hayvonlardan odamlarga yuqadigan patogenlar sanaladi. Xitoyda aniqlangan koronavirus COVID-19 deb nomlangan va u juda jiddiy kasallikka olib kelishga qodir.

#### ❖ **COVID-19 NIMA**

COVID — 19 — bu yaqinda kashf etilgan koronavirus tomonidan chaqiriladigan infeksiyon kasallik. 2019-yil dekabr oyida Xitoyning Vuxan shahrida kasallik avj olishidan oldin, yangi virus va kasallik haqida hech narsa ma'lum emas edi.

❖ COVID 19 ning eng ko'p uchraydigan alomatlariga isitma, charchoq va quruq yo'tal kiradi. Bir qator bemorlarda turli xil og'riqlar, burun bitishi, oqishi, faringit yoki diareya kuzatilishi mumkin. Qoida tariqasida, bu alomatlar asta-sekin rivojlanadi va yengil kechadi. Ba'zi kasallangan shaxslarda hech qanday alomatlar yoki ahvolning yomonlashuvi kuzatilmaydi.

Virus havo-tomchi yo'li bilan yo'talish va aks urish paytida to'g'ridan-to'g'ri yuqadi. Shuningdek virus bilan ifloslangan yuzalarga tegish orqali ham yuqishi mumkin. COVID-19 virusi bir necha soat davomida buyumlarning sirtida o'z kuchini saqlab qoladi, biroq oddiy dezinfeksiya vositalari uni o'ldirishi mumkin.

• Infeksiyani yuqtirmaslik uchun siz va oilangiz to'rtta ehtiyot choralarini ko'rishingiz mumkin:

1. Tarkibida spirt bo'lgan qo'l tozalash vositalari yoki sovun bilan qo'llarni tez-tez yuvib turish.

2. Yo'talish yoki aks urish paytida og'z va burningizni egilgan tirsak yoki qog'oz dastro'mol bilan berkiting, so'ng dstro'molni yopiq axlat idisihga tashlang.

3. Shamollash yoki isitma alomatlari bo'lgan har qanday kishi yaqindan muloqotda bo'lishdan qoching.

4. Agar sizda yoki bolangizda isitma, yo'tal yoki nafas qisilishi bo'lsa, imkon qadar ertaroq tez yordamga murojaat qiling.

✓ **. UNICEF yordam berish uchun nima qilgan?**

UNICEF bu boradagi faoliyati asosan Xitoy hukumati va Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi mamlakatlarning aksariyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan edi. 29 yanvardan harakatlar boshlangan UNICEF 13 tonna jihozlar, jumladan tibbiyot xodimlari foydalanishi uchun himoya kiyimlari, niqoblar, ko'zoynak va qo'lqoplarni yetkazib berdi. Bularga qo'shimcha ravishda boshqa yuklar ham UNICEF tomonidan muhim joylarda yetkazib berishgan.

✓ ***Agar ona COVID-19 bilan kasallangan bo'lsa, ko'krak suti bilan farzandini emizishi xavfsizmi?***

Ko'krak suti bilan oziqlantirishning foydali tomonlarini va boshqa respirator viruslar ko'krak suti orqali yuqishi ehtimolining juda pastligini e'tiborga olgan holda, onalar emizishni davom ettirishi mumkin. COVID-19 tasdiqlangan yoki shubha qilingan har qanday kishilarga, jumladan bolalar bilan o'zaro muloqotda bo'lgan holatlardagi kabi emizikli onalar uchun ham quyidagilar tavsiya qilinadi:

- bolaga yaqin bo'lganda va uni emizish vaqtida niqob kiyish
- bola bilan muloqot qilishdan avval va keyin
- shuningdek uni ovqatlantirganda qo'llarni sovun bilan yuvish va jihozlarning ifloslangan sirtlarini tozalash dezinfektsiyalash.

Agar ona jiddiy kasal bo'lsa, yuqorida aytilgan profilaktika usullariga rioya qilgan holda ko'krak sutini sog'b, uni bolaga toza idish va yoki qoshiqda berish kerak. Xulosa qilib aytganda viruslar , virusli kasalliklar bo'ladimi yoki boshqa bir bakterial kasalliklarda ham har bir shaxs birinchi navbatda tozakilva gigeniya qoidalariga qat'iy rioya qilishlari darkok. Zero hayot go'zal yashamoq totli.

**Foydalanigan adabiyotlar:**

- ✓ Mikrobiologiya Imunologiya Virusologiya (Toshket "Yangi asr avlodi" 2006-yil I.Muhamedov,E.Eshboyev,N.Zokirov,Mzokirov)
- ✓ <https://uz.m.wikipedia.org>
- ✓ Biologiya (9-sinf TOSHKENT 2014  
A.Zikiriyayev,A.Tohtayev,I.Azimov,N.Sonin)
- ✓ [www:Mymedik.uz](http://www.Mymedik.uz)